

Yosh olimlar axborotnomasi

Ilmiy-amaliy axborotnoma to'g'risida ma'lumot



1. «Yosh olimlar axborotnomasi» – «Vestnik molodykh uchenykh» – «The Bulletin of Young Scientists» ilmiy-amaliy axborotnomasi O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 yanvar «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muassisligida tashkil etilgan.
2. Muassisning manzili: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
Manzil: Toshkent, 100047, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70.
Tel. +998(71) 233 50 33, +998(93) 594 14 02
3. Ommaviy axborot vositaning nomi: «Yosh olimlar axborotnomasi» – «Vestnik molodykh uchenykh» – «The bulletin of young scientists» ilmiy-amaliy axborotnoma.
4. Turi: axborotnoma.
5. Tili: o'zbek, rus, ingliz.
6. Maqsad va vazifalari:
 - yosh olimlarning innovatsion va ilmiy-nazariy yutuklarini ommaviy axborot vositalari orqali har tomonlama targ'ib-tashviq qilish;
 - ma'naviy yuksalishda ilmiy izlanishlar natijalarini yoritish;
 - jahon hamjamiyati doirasida yuzaga kelayotgan globallashuv va modernizatsiya, texnologik rivojlanish

hamda innovatsiya va ilm-fan taraqqiyotining zamonaviy dolzarb muammolaridan bo'lgan texnologik taraqqiyot va uning takomillashuvida, ya'ni jahon standartlari darajasidagi yuksak professional salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni shakllantirish;

- yosh olimlarning jahon va O'zbekiston iqtisodiyotining real sektorlarini tadqiq etishdagi innovatsion izlanishlari asosida ularning istiqbolini belgilash;
 - respublikaning iste'dodli va salohiyatli yoshlarini olingan ilmiy izlanishlar natijalari hamda maqolalarni axborotnomada yoritib borish;
 - Axborotnoma aniq, tabiiy, tibbiy hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar tarmoqlari bo'yicha yosh, professional yetuk kadrlarini shakllantirish uchun kurashuvchi, ularning intellektual salohiyatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, bu g'oyalar taraqqiyotini ta'minlash, ilm-fan yutuqlarini keng targ'ib qilishda ziyolilar, olimlar, mutaxassislar hamda jamoatchi faollar uchun matbuot minbari rolini bajaradi.
7. Ixtisoslashuvi: fanlararo, ilmiy-nazariy va amaliy, chorak axborotnomasi. Keng o'quvchilar ommasi – akademik-litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim talabalari va professor-o'qituvchilari, turli kasb egalari hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining barcha sohasi vakillariga mo'ljallangan.
 8. Tarqatilish hududi: O'zbekiston Respublikasi hududi va belgilangan tartibda chet davlatlar.
 9. Davriyligi: har 3 oyda 1 marta, yiliga 4 marta nashr etiladi.
 10. Tiraji: 1000 nusxada.
 11. Tahririyat dizayn imkoniyati, jurnal nashr etish huquqiga ega bosmaxona va tarqatuvchisi to'g'risida ma'lumot: axborotnoma maketi Tahririyatning dizayn bo'limida tayyorlanadi.
 12. Hajmi: qog'oz bichimi 60 x 841/8, qog'oz hajmi 10.0 bosma taboq, muqova 4 bet, ichki matn 156 bet, jami 160 bet.
 13. Moliyalashtirish manbalari: Ustav fondi, va boshqa konun bilan taqiqlanmagan mablag'lar.

14. Tahririyat manzili: Toshkent, 100052, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70.

E-mail: yok_axborotnoma@mail.ru

МУҲТАРАМ ҲАМКАБЛАР!

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси қошидаги Ёш олимлар Кенгашининг ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых» – «The Bulletin of Young Scientists» илмий-амалий ахборотномаси ташкил этилган.

Ахборотномани чоп этишдан кўзланган мақсад: Ўзбекистон Республикасида фан ва технологиялар модернизацияси борасида амалга оширилаётган туб ислохотлар, миллий истиқлол ғояси тарғиботи ва илмий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, иқтидорли ва салоҳиятли ёшларни излаб топиш ва уларни илмий-тадқиқот ишларига йўналтириш орқали жамиятимизда соҳанинг етуқ профессионал кадрларини тайёрлашга эришиш.

Илмий мақолалар «Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых» – «The Bulletin of Young Scientists» илмий-амалий ахборотномаси таҳририятига қуйидаги талаблар асосида расмийлаштирилиб етказилиши лозим:

1. Мақолалар илм-фан тармоғининг 3 йўналишида ўзбек, рус ва инглиз тилларида қабул қилинади:

-Аниқ фанлар;

-Табиий фанлар;

-Ижтимоий-гуманитар фанлар.

2. Мақолалар мамлакат тараққиётининг манфаатларига зид бўлмаган, долзарб мавзуларга қаратилган бўлиши, илмий-амалий талабларга жавоб бериши, тадқиқотчининг илмий изланишлари доирасида бўлиши, ҳамда таклиф ва мулоҳазалар берилиши лозим;

3. Мақоланинг умумий ҳажми 9-10 бет ҳажмида.

4. Roman New Times ва Arial 1,5 интервалда. Microsoft Word матн формати 14 pt (ёзма ва электрон вариантда) топширилади.

5. Матн форматининг чегараси: тепадан – 2,5 см., пастдан – 2,5 см., чапдан -2,5 см., ўнгдан – 2,5.

6. Мақоланинг тепа қисми ўнг бурчагида илмий йўналиш Удк__рақамлари кўйилади. Кейинги қаторнинг ўртасида мақоланинг номи бош ҳарфлар билан берилади.

7. Кейинги қаторнинг ўртасида муаллиф ҳақида қуйидаги маълумотлар кўрсатилиши лозим: Исми, отасининг исми, фамилияси, илмий даражаси ва унвони, шаҳар, ташкилот (ўқув юрти номи) номи келтирилади.

8. Асосий матн қайси тилда бўлса, ўша тилда 10 тадан кам бўлмаган калит сўзлар келтирилади.

9. Калит сўزلардан кейин асосий матн (7-8 вароқдан кам бўлмаган) келтирилади.

10. Асосий матндан сунг мақоланинг номи ва қисқа резюмеси ўзбек, рус ва инглиз тилларида берилиши лозим.

11. Фойдаланилган манба (ихтибос)лар матн сўнгида кўрсатилиши шарт.

Эслатма: Таҳририятга тақдим этилаётган илмий мақола АКТ
экспертизасисиз қабул қилинмайди. Ахборотнома таҳририяти материалларни танлаб олиш
ҳуқуқига эга. Мақола мазмуни учун жавобгарлик муаллифлар зиммасига юклатилади.

«Ёш олимлар ахборотномаси» – «Вестник молодых ученых» – «The Bulletin of Young Scientists»
илмий-амалий ахборотномасининг манзили:

Тошкент, 100047, Яҳё Фуломов кўчаси, 70.

Офф: (8-371) 233-50-33;

Телеграмм: (+998 93) 532-11-41; (+998 93) 594-14-02.

E-mail: yok@academy.uz